

**KOGNITIV TILSHUNOSLIK: ONG VA TAFAKKURNING NUTQDA
NAMOYON BO'LISHI**

Norboyeva Saida Rashidovna

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi

Surxondaryo akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kognitiv tilshunoslik fanining yuzaga kelishi, uning tarixi, taraqqiy etishi kabi masalalar yoritilgan. Inson ruh va tananing birlashuvidan iboratligi, ong va tafakkurning nutqda namoyon bo'lishi

Kalit so'zlar: ong, tafakkur, idrok etish, intellekt, kognitivizm, mantiq, psixik jarayon, til, nutq.

Inson yashayaptimi? Demak unda savollar doim bo'ladi. Nima uchun? Nega? Qanday qilib? Ya'ni bizda savol bormi, demak o'rganishga qiziqish, intilish bor!

Inson ulg'ayar ekan, uning tanasi ham, ruhi ham doim rivojlanib boradi. Inson tanasi bizga berilgan barcha ne'matlardan, oзуqalardan oziqlanib rivojlanib borsa, uning ruhi esa yoshlikdan berilgan tarbiya, olayotgan bilim va ko'nikmalardan oziqlangan holda o'sib boradi. Bu tushuncha esa biz ruh va tananing jipsligidan hosil bo'lganligimizni namoyon etadi nazarimizda! Bizning ongimiz tafakkur qilib sayqal bergan fikrlarimizni nutqimiz tashqi olamga olib chiqadi. Nutqimiz ichki kechinmalarimizni, ruhiyatimizni, ijobiy yoki salbiy fikrlarimizni yuzaga chiqarib beruvchi qurol emasmi! Bu o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, ongimiz va nutqimizning birikuvidan insonning so'zlashuv jarayoni amalga oshiriladi.

Keling, buni ilmiy jihatdan ham mulohaza qilib ko'rsak. Bilamizki, biz o'rganayotgan fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Ayniqsa, falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya, psixolingvistika kabi fanlarning uzviy bog'liqligiga ko'p bora amin bo'lganmiz.

Tilshunoslik, psixologiya, psixolingvistika fanlarining birlashuvidan **Kognitiv** tilshunosligi paydo bo'lganligi hammamizga ma'lum. Bu yo'nalishni yanada aniqroq tavsiflab o'tsak.

Kognitiv tilshunoslik bu — til va ong o'rtasidagi munosabatlar, dunyoni qabul qilish, tilning rolini, inson tajribasini umumlashtirishda, insonning shaxsiy qobiliyatlari bilan bog'liqligini, til va ularning o'zaro ta'sirlarini o'rganadigan tilshunoslik yo'nalishidir.

Ko'plab olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo'lishini Jorj Miller va Filipp Jonson-Leyrdlarning mashhur "Til va idrok" kitobining chop etilishi bilan bog'lashadi.

Kognitivizmga ko‘ra, shaxs tomonidan axborot qayta ishlash tizimi sifatida o‘rganilishi va inson xatti-harakati, uning ichki holatlari nuqtai nazaridan tavsiflanishi va tushuntirilishi kerak. Ushbu holatlar jismoniy jihatdan namoyon bo‘ladi, kuzatiladi va axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va muammolarni hal qilish uchun safarbar qilish sifatida talqin etiladi. Bu muammolarning yechimi bevosita tildan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, til kognitivistlar diqqat markazida bo‘lishi tabiiydir. Demak, kognitivizmga ko‘ra, insonning nutqiy faoliyati, ongda tartibga solingan fikrlar majmuasining bir ko‘rinishidir. Agar insonning nutqida nuqsonlar, kamchiliklar, ma‘lumotlarni to‘liqligicha yetkazib bera olmaslik kabilar namoyon bo‘lsa, demak uni ongda birinchi tuzib olish va to‘liq idrok etish zarur bo‘ladi. Ushbu ma‘lumotlardan anglaymizki, nutqimizdagi kamchiliklarni xoh yozma nutq bo‘lsin, xoh og‘zaki nutq bo‘lsin, uning asosi, ya‘ni ongimizni to‘g‘rilamas ekanmiz, fikrlarimizni tartiblamas ekanmiz, bizning nutqimizda o‘shish, rivojlanish bo‘lmaydi! Ruhiyat va nutqning bog‘liqligini anglagan holda birgalikda rivojlantirish zarur va birinchi o‘rinda ruhiyatni davolash va uni to‘g‘rilash kerak. So‘zlarimizda kamchilik bo‘lsa, ayb so‘zda emas, uning ildizi bo‘lgan ongdadir. Demak, biz ongimiz rivojlanishi uchun nimalarni qabul qilishimiz kerak, uni nimalar bilan to‘ldishimiz kerak. Ong va tafakkurning rivojlanishi uchun yetarlicha bilim-ko‘nikmaga ega bo‘lishimiz, tafakkurimizni o‘stirishimiz, ongimizni kerakli tushunchalar bilan to‘ldirishimiz zarur deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunosik. “Sangzor” nashriyoti. 14-bet
2. Boymurodova L. Kognitiv tilshunoslik haqidagi nazariy bilimlar. Maqola 4-bet
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. –B. 3.
4. Rahmatullayev Sh. “Sistem tilshunoslik asoslari” - T.: Universitet, 2007